Мазкур жиноятларни таснифлашда қуйидаги муҳим мезонларга эътибор қаратиш керак, яъни ушбу жиноятлар кибержиноят сифатида амалга оширилаётган вақтда кибержиноятни амалга ошираётган субъект фақатгина мазкур жиноятни тартибга солувчи ижтимоий муносабатларни назарда тутивчи обьектдан ташқари ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси, шу жумладан, ахборотлаштириш, телекоммуникация соҳасини тартибга солувчи ижтимоий муносабатларга таҳдид солади ҳамда ўз жиноятини ахборот-коммуникация технологиялари орқали амалга оширади, шу билан бирга, жиноят шахсдан ташқари жамият манфаатларига қарши қаратилган бўлади ва жиноят кибормаконда содир этилади. Айнан мана шу тўртта мезон жиноятнинг жамоат хавфсизлигига нисбатан кибормаконда содир этилаётган кибержиноят эканлигини тасдиқлайди.

Шу жиҳатдан олиб қарасак, жамоат хавфсизлигига қарши кибержиноятларни қуйидаги гуруҳларга таснифлаш мумкин, жумладан:

жамиятда шахсларнинг ҳаёти ва соғлиғига таҳдид солувчи кибормаконда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиб ёки телекоммуникация ёхуд Интернет тармоғида содир этиладиган кибержиноятлар;

жамиятда шахсларнинг шаъни ва қадр-қимматига таҳдид солувчи кибормаконда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиб ёки телекоммуникация ёхуд Интернет тармоғида содир этиладиган кибержиноятлар;

жамиятда шахсларнинг шахсий, сиёсий, ижтимоий-иктисодий, конституциявий ҳуқуқ ва манфаатларига таҳдид солувчи кибормаконда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиб ёки телекоммуникация ёхуд Интернет тармоғида содир этиладиган кибержиноятлар;

ахборот-коммуникация технологиялари, шу жумладан, ахборотлаштириш, телекоммуникация соҳасига оид кибержиноятлар.

Ушбу тўртта гуруҳдаги кибержиноятлар ўз навбатида икки хил шаклда содир этилиши мумкин:

ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиб содир этиладиган кибержиноятлар;

ахборот-коммуникация технологияларига нисбатан содир этиладиган кибержиноятлар.

Жамоат хавфсизлигига таҳдид солувчи кибержиноятларни уларнинг содир этиш шакли, усули ва гуруҳига қараб эса, қуйидаги уч гурухга ажратиш мумкин:

кибербуллинг жиноятлари;

жамоат хавфсизлигига таҳдид солувчи телекоммуникация ёки Интернет тармоғидан фойдаланиб содир этиладиган ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий кибержиноятлар;

рақамли технологиялар соҳасига қарши қаратилган кибержиноятлар.

Жиноят кодексининг 103-103<sup>1</sup>, 110, 112, 115-115<sup>1</sup>, 119, 121, 125, 126<sup>1</sup>, 129, 136, 139-141<sup>2</sup>, 143, 145-147, 150-151, 155-162, 165, 168-170, 173, 188<sup>1</sup>, 192, 215-216, 229, 229<sup>2</sup>, 239, 244-244<sup>1</sup>, 244<sup>5</sup>-244<sup>6</sup>, 247-248<sup>1</sup>, 251-253, 256, 258, 263, 265, 267, 271, 273-274, 277-моддаларида назарда тутилган жиноятлар кибербезорилик орқали содир этилади.

Жиноят кодексининг 120, 127, 127<sup>1</sup>, 130, 130<sup>1</sup>, 131, 133<sup>1</sup>, 141<sup>2</sup>, 149, 167, 171-172, 176-177, 185, 185<sup>1</sup>, 186-186<sup>3</sup>, 189, 228, 242, 243, 244<sup>3</sup>, 248, 250-250<sup>1</sup>, 251<sup>1</sup>, 255<sup>1</sup>, 278-моддаларида назарда тутилган жиноятлар жамоат хавфсизлигига таҳдид солувчи телекоммуникация ёки Интернет тармоғидан фойдаланиб содир этиладиган ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий кибержиноятлар ҳисобланади.

Жиноят кодекининг 278<sup>1</sup>-278<sup>9</sup>-моддаларида назарда тутилган жиноятлар эса, ахборотлаштириш ва телекоммуникация соҳасида ёки рақамли технологиялар соҳасида содир этилади.

Шу ўринда савол бўлиши мумкин, юқорида саналган жиноятлардан ташқари бошқа кибержиноятлар жамоат хавфсизлигига қарши кибержиноят саналмайди. Бизнинг амалдаги қонунчилигимиз бўлган Жиноят кодексининг 4-моддасига асосан, содир этилган **қилмишнинг жиноийлиги**, жазога сазоворлиги ва бошқа ҳуқуқий оқибатлари **фақат Жиноят кодекси билан белгиланади**. Демак, қачонки бошқа ижтимоий хавфли қилмишлар Жиноят кодексимизда белгилансагина биз уни жиноят деб атай оламиз ҳамда бунинг учун жавобгарлик масаласи кўтарилиши мумкин, бу қоида кибержиноятларга ҳам тааллуқлидир. Шунга кўра, 1-3-иловага мувофиқ кибержиноятларнинг тавсифини беришда уларнинг Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексидаги ҳолати ҳам қайд этилган. Жамоат хавфсизлигига таҳдид солувчи кибержиноятларни объектига қараб таснифлаш орқали бу жиноятлар ҳақида аниқроқ тушунчага эга бўлиши мумкин. Бу тоифадаги кибержиноятларни қасд шаклига қараб, содир этилиши усууларига қараб ҳам тоифалаш мумкин. Бирок, миллий жиноят қонунчилигимиз объектига қараб жиноятга оид моддалар кодексда назарда тутилганлиги боис, уларни объектига қараб ўрганиш самаралироқdir.

Жамоат хавфсизлиги ва жамоат тартибига оид кибержиноятларни таснифлаш ва квалификация қилишда иккита қоидани унутмаслик керак, яъни бу тоифадаги жиноятлар ҳар доим ҳам битта шахсга қаратилмаган бўлади, қаратилган тақдирда ҳам бу шахс орқали жамият манфаатлари зарар кўриши мумкинлигини кибержиноятчи олдиндан билади, иккинчидан бу тоифадаги кибержиноятларнинг асосий мақсади фойда олишни эмас, балки безорилик характеристини амалга ошириш ёки ўзини кўрсатиб қўйишга ҳам оид бўлиши мумкин. Мисол учун, қўйидаги кибержиноятларни содир этар экан шахснинг асосий мақсади одатда безорилик ёки ўзини кўрсатиб қўйиш ёҳуд ўзини бошқалар эътироф этишини хоҳлаб ушбу жиноятни содир этиши мумкин, яъни:

ЖКнинг 247-моддасида назарда тутилган ўқотар қуролни, ўқ-дориларни, ўқотар қуролнинг асосий қисмларини, портловчи моддаларни, портлатиш воситаларини ёки портлатиш қурилмаларини қонунга хилоф равишда эгаллаш, яъни тармоқ орқали масофадан бошқарувни қўлга киритиб, бу қуроллардан учинчи шахс сифатида ўзаро низолашаётган тарафлардан бирига кўмаклашиш ёки ўч олиш мақсадида ҳам содир этилиши мумкин ва бунда жиноятчининг асосий мақсадида бу қуролларни эгаллаш эмас, балки бу қуроллардан фойдаланиб бошқа субъектларга таҳдид қилишга қаратилган бўлади ва шу сабабли ҳам бу тоифадаги жиноятларни квалификация қилишда мақсад ва мотив масаласига аниқлик киритиш керак.

Жиноят кодексининг 248<sup>1</sup>-моддасида назарда тутилган учувчисиз учадиган аппаратларни сақлаш ва улардан фойдаланиш тартибини бузиш жиноятини содир этар экан масофадан туриб, бу турдаги қурилмаларни кибержиноятчи бошқаришни қўлга киритиш ёки уларнинг бошқарув фаолиятига четдан таъсир кўрсатиб ёхуд вирус орқали унинг бошқарув тизимиға четдан аралашиб, кўнгилхушлик, қасдан ваколатли идоралар фаолиятига тўсқинлик қилиш, уларга нисбатан безорилик жиноятини амалга оширишни кибержиноятчи мақсад қилган бўлади. Жиноят кодексининг 277-моддасида безорилик жиноятининг таърифини белгилашда қонунчилик безорилик кибержиноят ҳолатида ҳам содир этилиши мумкинлигини инобатга олмаган, шу сабабли ушбу моддага тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритулгунига қадар шахснинг харакатларини Жиноят кодексининг 278<sup>1</sup>-278<sup>7</sup>-моддаларида назарда тутилган жиноятлар билан бир қаторда асосий жиноят билан моддаси билан ҳам квалификация қилиш керак. Бироқ, судлар жазо қўллаш вақтида бу турдаги жиноятнинг содир этилиши оқибатида жамият манфаатларига қанчалик зарар келтирилганлигини инобатга олишлари лозим.

Жиноят кодексининг 250-моддасида назарда тутилган портлаш хавфи бўлган моддалар ёки пиротехника буюмларидан фойдаланиш қоидаларини бузиш жинояти асосан таҳдид орқали мўмайгшина пул ишлаб олиш ёки ўч олиш мақсадида содир этилади. Иккала ҳолатда кибержиноятчи жабрланувчидан молиявий ёки номулкий манфаат қўришни мақсад қилиши ҳам мумкин.

Жиноят кодексининг 250<sup>1</sup>-моддасида назарда тутилган пиротехника буюмларининг қонунга хилоф муомаласига оид жиноят асосан рақобатчини обўйизлантириш мақсадида содир этилади ёки ўч олиш мақсадида ҳам амалга оширилиши мумкин.

Жиноят кодексининг 251-255<sup>1</sup>-моддасида назарда тутилган модда ёки материалларни қонунга хилоф равишда эгаллаш жинояти мазкур моддаларни эмас, балки улар сақланган контейнер ёки улар сақланаётган омбор мафоғавий бошқарув орқали таҳдид йўли билан содир этилади.

Жиноят кодексининг 255<sup>2</sup>-моддасига асосан, нефть қувурларини, газ қувурларини, нефть ва газ маҳсулотлари қувурларини яроқсиз ҳолатга келтириш одатда масофадан туриб бошқарувни қўлга киритиш ёки мазкур қувурлар автоматик ёки ахборот тизими орқали бошқалариладиган бўлса, вирус юбориш орқали ёки бошқача қонунчиликка хилоф харакатлар орқали халақит бериш йўли билан содир этилади.

Жиноят кодексининг 267-моддасида назарда тутилган транспорт воситасини олиб қочиш жиноятини квалификация қилишда уни робот ёки масофадан туриб олиб қочиладиган бўлса, ушбу вазиятда кимни жавобгарликка тортиш керак деган масала бахсли саналади, бу ҳолатда қонун аналогияси бўйича Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекс талабидан келиб чиқадиган бўлсак, роботга нисбатан мулқдор ёки агарда у айбизз бўладиган бўлса, роботни ким фойдаланган бўлса, ўша субъектни жавобгарликка тортиш мақсадга мувофиқдир.

Жиноят кодексининг 278-моддасида назарда тутилган қимор ва таваккалчиликка асосланган бошқа ўйинларни ташкил этиш ҳамда ўтказиш жинояти қачонки тармоқда содир этилсагина унинг иштирокчилари маъмурий жавобгарликка, уни ташкил қилган субъект эса, жиноий жавобгарликка тортилади.

Хулоса қилиб айтганда, жамоат хавфсизлигига ва жамоат тартибига қарши кибержиноятлар безорилик, ўзини кўрсатиб қўйиш, моддий ёки номулкий эҳтиёжни қўрқтиш ва таҳдид орқали амалга ошириш йўли билан содир этилади. Бу тоифадаги барча жиноятлар қасдан содир этилади, эҳтиётсизликдан мазкур қилмишнинг вужудга келишига сабабчи бўлган шахслар эса, мансабдорлик ёки лавозим мажбуриятларига оид жиноий ва интизомий ҳамда мулкий жавобгарликка тортилиши мумкин.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
2. “Киберхавфсизлик тўғрисида” 2022 йил 15 апрелдаги ЎРҚ-764-сон Қонуни // lex.uz – Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси.
3. А. Анорбоев. Кибержиноятчилик: жиноят-хуқуқий ва криминологик жиҳатлари. <https://lib.bimm.uz/items/9747>.

## **BOLALAR FOLKLORI VA UNING TALQINI, BADIY XUSUSIYATLARI**

***Eshmurzayev Yusuf Meylikulovich***

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

*"Folklor va etnografiya" va "O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi*

***Ergasheva Zilola Saydulloyevna***

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

*"Folklor va etnografiya" va "O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrasi o'qituvchisi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.14914256>***

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodining janrlaridan bo'lgan marosim folklori va uning turlari marosim folklori namunalarining bolalar tarbiyasidagi amaliy o'rni haqida so'z boradi Zero, xalq og'zaki ijodida xalqning olam haqidagi tushunchasi, didi, ijtimoiy, tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy estetika mujassamlashgan bo'lib, yosh avlod tarbiyasidagi o'rni haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** folklor, qo'shiq, film, tomoshabin, marosim, yozuvchi, dostonlar, noyob urf-odatlar, folklor janrlari, maqollar.

**Аннотация:** В статье рассматривается практическая роль обрядового фольклора, жанра устного народного творчества, и его видов в воспитании детей. Ведь устное народное творчество воплощает в себе народное миропонимание, вкусы, социальную, историческую, политическую, философскую и художественную эстетику, обсуждается его роль в воспитании подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** фольклор, песня, фильм, аудитория, ритуал, писатель, былины, уникальные традиции, фольклорные жанры, пословицы.

**Abstract:** This article discusses the practical role of ritual folklore, a genre of oral folk art, and its types in the upbringing of children. After all, oral folk art embodies the people's understanding of the world, tastes, social, historical, political, philosophical, and artistic aesthetics, and its role in the upbringing of the younger generation is discussed.

**Key words:** folklore, song, film, audience, ritual, writer, epics, unique traditions, folklore genres, proverbs.

Marosim folklori va uning turlari marosim folklori namunalari folkloarning eng qadimiylari sirasiga kiradi. Folklorshunoslikda marosim folklori janrlarini ikki katta guruhga ajratish an'anasi mavjud. Bu turlar quyidagi ko'rinishga ega:

- 1) mavsumiy marosimlar folklori;
- 2) oilaviy marosimlar folklori.

Mavsumiy marosimlar yil mavsumlarining almashinushi avvali va oxiri, ma'lum bir xo'jalik turlarining boshlanib yakun topishi, ob-havo bilan bog'liq mavsumiy marosimlarni o'z ichiga oladi. Mavsumiy marosimlarning aniq vaqt, belgilangan o'tish muddatlari

mavjud va ular bir oila yoki jamoaga tegishli bo‘lmay, butun xalq ommasiga tegishlidir. «Mavsum» deganda, asosan, yil fasllari nazarda tutiladi. Binobarin, mavsum qo‘shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog‘liq bo‘ladi. Marosim esa diniy yoki an’anaviy urf-odatlar munosabati bilan o‘tkaziladigan tadbir, yig‘in demakdir. U bayram umumxalq shodiyonasi, tantana kun ma’nosini ifodalaydi. Ma’lum bo‘ladiki, «marosim» tushunchasi «bayram» so‘zi ifodalagan ma’nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqeа bilan bog‘lanishi mumkin. Bu tadbir oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo‘lishi lozim. To‘g‘ri, biz ko‘pincha «bayram marosimi» birikmasini qo‘llashimiz mumkin, ammo bu holatda gap oilaviy marosim haqida emasligi ta’kidlanadi. Dunyoda biron ta xalq yo‘qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o‘tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o‘yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uysushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o‘rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to‘ldiradi, mukammallashtiradi. Oilaviy marosimlar esa aksincha bir oila va oila a’zolari hayotidagi barcha mavsumlar o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamraydi. Oilaviy marosimlar mazmuni tug‘ilish, to‘y va motam marosimlaridan iborat va bu marosimlarda ijro etiluvchi folklor namunalari oilaviy marosimlar tarkibiy qismini tashkil etadi.

2. Mavsumiy marosimlar. O‘zbek mavsumiy marosim folklori quyidagi janrlarni qamrab oladi:

1) yil fasllari bilan bog‘liq marosim folklori janrlari: a) Qishki marosimlar folklori janrlari: «Sherda», «Qor xat». Xalqimizning qadimiy an’anasiga ko‘ra, yil bo‘yi mehnat qilib, kuzda dala ishlarini nihoyasiga yetkazgan dehqon va bog‘bonlar, shuningdek, o‘z suruvini qishlovgaga qaytarib kelgan chorvadorlar qishi bilan turli-tuman marosimlar orqali vaqtning ko‘ngilli o‘tishini ta’milaganlar. Yoshi teng bo‘lgan kishilar, ya’ni hamteng, jo‘ra, do‘syorlar «teng-tengi» bilan yig‘ilishib, «Gap-gashtak», «Dangana», «To‘kma», «Sherda», «Harfona» («Xalpana»), «O‘tirishma», «Ziyofat», «Tashkil», «Gurung» kabi turli xil marosimlarni tashkil etishgan. Ana shu xildagi o‘tirishlar xalq orasida keng ommalashgan bo‘lib, odatda, o‘ziga xos marosim tarzida o‘tkazilgan. Qish fasli bilan bog‘liq mavsumiy marosim folklorining o‘ziga xos qo‘shiqlar silsilasini jonli ijro holatida XX asrning 80-yillariga qadar saqlab kelgan qadimiy janrlaridan biri «Sherda» deb atalgan. Xalqimiz orasida «Sherda» atamasining bir necha xil talqinlari bor. Samarqand viloyati cho‘ponlari shevasida «Sherda» so‘zi «pishirilgan bir butun mol go‘shtini teng bo‘laklarga bo‘lib olish» degan ma’noda qo‘llaniladi.

Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Eski Qamay qishlog‘ida yashovchi Hazratqul baxshi Xudoiberdi o‘g‘lining aytishicha, «sherda deganimiz masalan, 20 kishi birlashib bir qo‘yni bozor kuni so‘yib bir yarim yoki ikki kg.dan bo‘lib olish odati. Ular yanagi haftada men, undan keyingi haftada siz deb navbat tuzib, dastlab sherda boshlaganda qanchadan go‘sht bo‘lib olingan bo‘lsa, ana shu davom etib, yigirmasi ham bittadan qo‘y so‘yib bo‘lib beradi». «Sherda» marosimining to‘liq tavsifi 1928-yilda etnograf olim M.F. Gavrilov tomonidan Zomin va Shahriston tumanlarida istiqomat

qiluvchi «qirq», «ming», «yuz», «qarapchi», «parchayuz» urug‘laridan yozib olingan. An'anaga ko‘ra, «Sherda» marosimi ikki xil yo‘l bilan, ya’ni o‘tirish uchun zarus bo‘ladigan masalliqlarni birgalikda, qo‘shilishib xarid qilish yoki «to‘kma» usulida (shuning uchun ham M.F. Gavrilov bu marosim Toshkent atrofidagi qishloqlarda «to‘kma» deb ataladi deb yozgan edi) hamda marosim ishtirokchilarining har biri galma-gal xarajat qilishi yo‘li bilan tashkil etilgan. «Sherda» qish bo‘yi o‘tkazilishi ko‘zda tutilganligi sababli bu marosimda ishtirok etadigan jo‘ralar, ulfatlar yoki tengdoshlar o‘zlarining ichidan bir kishini «bek» qilib saylaganlar. Bek esa o‘ziga yordam beradigan «o‘ng otaliq» va «chap otaliq»ni tayinlagan. Ular 45 biror sabab bilan bek «Sherda»da qatnashmay qolsa, uning vazifasini bajaruvchi o‘rinbosar hisoblanishgan. Odatda qish kirishi bilan o‘tkazilgan birinchi «Sherda»da «bek» saylangan.

Jizzax viloyatining Forish tumanidagi Forish davlat xo‘jaligining 2-bo‘limida yashovchi 70 yashar Ortiqvoy Risbekovning aytishicha, bu udum «bek ko‘tarish» deyilgan. Bunda «Sherda»ga yig‘ilgan yigitlar o‘zlarining eng obro‘-e’tiborli jo‘rasini «bek» qilib ko‘tarishgach, hammalari qur to‘kib o‘tirishgan va ulardan biri kosagulning qo‘lidan bo‘za quyilgan piyolani olib quyidagi qo‘shiqni ijro etgan: Ey begin, beklikkinangga yona bo‘l, Majlisa kirgan yigitlar dono bo‘l! Do‘s kelib, dushman ketar kundir bugun, Ey begin, qo‘sh otaliq, mardona bo‘l, Begin allayor, allayor, Begin allayor, allayor! Ey begin, nechada bordir yoshingiz, Hamisha davlatda bo‘lsin boshingiz, Do‘s kelib, dushman ketar kundir bugun, Hamisha Xizr bo‘lsin yo‘ldoshingiz, Begin allayor, allayor, Begin allayor, allayor! Qor yog‘mayin ola bo‘lgan tog‘lar-a, G‘unchasinda xazon bo‘lgan bog‘lar-a, Kuyistonda kuyib o‘tgan bedilxon, Ustida qag‘illab o‘tgan g‘ozlar-a, Begin allayor, allayor, Begin allayor, allayor! Forishliklar orasida urf bo‘lgan an'anaga ko‘ra, 46 «Sherda»da ba’zan hatto 50-60 nafar ulfatlar ishtirok etgan hollar ham bo‘lgan ekan. Ana shunday ko‘p kishilik «Sherda»ni boshqarish, tashkil qilish va tartibli o‘tkazish bekdan alohida mahorat, tajriba va qattiqqo‘llikni talab qilgan. Odatda bunday «Sherda»ning «bek ko‘tarish» udumida yigitlar «Sallamno» qo‘shig‘ini ijro etib, bekning sifatlarini ta‘rif-tavsif qilganlar. Xususan, Forish tumanidagi Uchma qishlog‘ilik Yusuf degan yigitni bek qilib ko‘targanda jo‘ralari quyidagi qo‘shiqni ijro etishgan: Yusufbek Uchma soyidan, Suhbat qurib jat1 oyidan, Ellik yigitga bosh bo‘lib, Yusuf beginiga sallamno! Ellik yigitniyam ozi, Yarashiqqa oltin qozi, Aning o‘zi bo‘lib sozi, Bahushyoringga sallamno! Yana keldik Yusufbekka, Erkavoyning bo‘yi tikka, Kosani sunganda bekka, Daroz bo‘yingga sallamno! Yasavuli Erkavoydir, Minganlari qilich toydir, Aning o‘zi yakka boydir, Bahushyoringga sallamno!

Bu marosimning o‘ziga xos jihat shundaki, unda ishtirok etuvchi yigitlarning barchasi «Sherda»da aytildigan an'anaviy xalq qo‘shiqlarini shirali ovoz bilan ijro etishgan. Ishtirokchilardan biri tomonidan ijro etilgan to‘rtlik boshqa 1 «Jat» - forishlik cho‘ponlar yanvar oyini shu nom bilan ataydilar. 47 kishi tomonidan qaytarilmagan. «Sherda» boshlangach, kosagul bo‘za quyilgan kosani ulfatlardan biriga tutar ekan: Alyor bo‘lsin-ay, Xo‘jam yor bo‘lsin-ay, Xo‘jam bergen bu davlatga Dushman zor bo‘lsin-ay! – deb qo‘shiq aytgan. Kosani olayotgan kishi bunga javoban odatda «Ollo yor bo‘lsinyey!» degan bo‘lsa-da, ko‘pincha javob to‘rtliklari ham aytilgan: Oyga o‘xshaydir yuzing, Cho‘lponga o‘xshaydi ko‘zing, Muncha ham yaxshi bo‘lurmi, El ichinda yulduzing.

Turkiston, Qarnoq, Iqon, Sayram, Qorabuloqda «Sherda» marosimida ijro etiladigan an'anaviy xalq qo'shiqlari «Haqqonalar», «Ko'nalar», «Bo'zagarlar qo'shig'i» deb atalgan. Bu joylarda urf bo'lgan an'anaga ko'ra, bekning amri bilan bo'za to'la kosani olgan kishi childirma jo'rлиgida «Haqqona» qo'shig'ining ikki to'rtligini ijro etishi, binobarin, birinchi to'rtlik qaysi so'z bilan boshlangan bo'lsa, ikkinchi to'rtlikni ham aynan o'sha so'z bilan boshlash qoidasiga riosa qilishi lozim bo'lgan. «Sherda» marosimining qadimiyligi an'analari o'tgan asr o'rtalariga qadar yashab kelgan bo'lsa-da, xalqimiz turmush tarzi va qadriyatlarining izchil rivoji davomida saqlanib qolmadi. Ammo bu marosimda ijro etilgan xalq qo'shiqlari keksa avlod xotirasida saqlangan bo'lib, folklor ekspeditsiyalari chog'ida «Haqqona», «Ko'hna» deb ataluvchi bu tafakkur durdonalarining ko'plab namunalari yozib olingan. Bahorgi marosimlar folklori janrlari: «Boychechak xabari» yoki «Boychechak sayli», «Qozon to'ldi», Navro'z, «Sumalak sayli», «Lola sayli», «Guli surx» sayli «Qizil gul 48 sayli», «Shox moylar», yomg'ir yog'dirish va uni to'xtatish marosimi folklori («Sust xotin», «Chala xotin», «So'z xotin», «Chayla qozoq» va h.k.)

<sup>15</sup>. Ostonasi tillidan. To'y marosim qo'shiqlari/ Nashrga tayyorlovchilar: M.Mirzayeva, A.Musaqulov. – Toshkent: Fan, 1992.

Mamlakatimiz hududida an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan gul sayllarining eng qadimiysi va keng tarqalgani «Boychechak sayli» yoki «Boychechak xabari» marosimi hisoblanadi. Tarixan magik xarakterdagi «Boychechak sayli» yoki «Boychechak xabari» marosimi qadimdan Navro'zoldi shodiyonalardan biri sifatida o'tkazib kelingan. Ba'zi joylarda bolalar bir dasta boychechakni uzun xodaning uchiga bog'lab olganlar va uni ko'tarib qishloq aylanganlar. Qadimda o'tgan «Boychechak» marosimida qish va ko'klamning kurashini ifodalovchi sahnalar bo'lgan. Bunda qish va yoz tomon ramziy jang qilib, aytim-qo'shiq kuylab bahslashganlar. Boychechak chiqqanligi – qish-qirovli kunlar ortda qolib, ko'klam yaqinlashganligini anglatgan. Shuning uchun keksa va kasal odamlar bolalar olib kelgan boychechakni yuz-ko'zlariga surtib, undan yaqinlashayotgan bahor hidini tuyganlar. Sog'-omon Navro'zga yetib kelganliklariga shukrona aytib, «Omonlik, omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik! Og'irligim yerga, yengilligim o'zimga», – deganlar. Xalqimiz tafakkurining betakror mo'jizasi – Navro'z bayrami qadim zamonlardan bizgacha yetib kelgan muhtasham qadriyatlarimizdan biridir.

Tabiat va jamiyatdagi yangilanishni o'zida ajoyib tarzda mujassam etgan Navro'z sayli xalqimiz dunyoqarashi, turmush tarzi, o'ziga xos milliy an'analarini va badiiy tafakkurining har bir yutug'idan kuch olib, asrlar davomida yanada to'lishib, yangilanib, barkamollashib kelgan umrboqiy shodiyonadir. Navro'z bayrami sayllari yilning eng farog'atli va saodatli davrida, 49 ya'ni butun olam ko'klam tarovatidan yashnab ketadigan, tabiatda ham, inson ko'nglida ham yangilanish, yasharish mavsumi boshlanadigan damda bo'lib o'tadi. Odamlar qalbiga cheksiz quvonch, mehr-oqibat, ezgu umidlar baxshida etadigan yilboshi sayllari g'oyatda hayotbaxsh va ayni paytda, bunday muhtasham qadriyatlarni ijod qilgan ulug' xalqimizning o'zi kabi umrboqiyidir. Navro'z sayli tantanalarini o'ziga xos tarzda boshlanadi. Barcha shahar, tuman markazlari, qishloq guzarlari va mahallalar bahoriy kayfiyat, ruhiy yangilanish, mehr-oqibat, yaratuvchilik va buniyodkorlik g'oyalarini o'zida aks ettirgan shiorlar, lavhalar, suratlar bilan bezatiladi.

Sayildan bir kun oldin gul-chamanlar bilan bezatilgan mashinalarga o‘rnatilgan ovoz kuchaytirgich moslamalari yordamida jarchilar yurtdoshlarimizni yilboshi shodiyonalariga taklif etadilar. Bu ezgu tantana targ‘ibotida ommaviy axborot vositalari, radio va televide niye xodimlari ham faol ishtirok etadilar. Xalq o‘yinlari, ko‘pkari, kurash, arg‘imchoq uchish, varrak uchirish an’analari bilan birga folklor-etnografik jamoalari, lapar, o‘lan, alla ijrochilari, hunarmandlarning ko‘rik-tanlovlari, askiyachilarning bellashuvlari, mahalla-ko‘y obodonchiligi, oilalar farovonligi, mehr-oqibatlilik bilan bog‘liq ko‘rik-tanlovlar o‘tkaziladi. Xalqimizning ko‘hna e’tiqodlaridan biri bo‘lmish yilboshini sumalaksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Otabobolarimiz Navro‘zga tayyorgarlikni ham sumalak pishirish uchun maysa undirishdan boshlaganlar. Navro‘z bamisoli tan bo‘lsa, sumalak uning joni, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Ajdodlarimiz asrlar bo‘yi Navro‘z oqshomi katta-katta doshqozonlarda sumalaklarni qaynatib, kelayotgan yangi yil barakali, qutli va serhosil bo‘lishiga umid bog‘laganlar. Sumalak pishirayotgan onaxonlarimiz qadimiy xalq qo‘shiqlarini, baytg‘azallarni aytib, bayram fayziga fayz qo‘sghanlar. Xalqimiz orasida sumalak pishirish bilan aloqador g‘oyat qiziqrli an’ana va udumlar, e’tiqod va inonchlar bo‘lgan. Ana shunday qadimiy an’analardan biri sumalak pishirish bilan aloqador «Ashshadarоzi» marosimidir. Amudaryo sohillariga xos bu qadimiy marosim va u bilan bog‘liq o‘yin Xorazm xalq teatri an’analarini o‘rgangan san’atshunos T.Qilichev tomonidan aniqlangan. Olim 1974-yilning 10-noyabrida To‘rtko‘l tumanidagi «Qirqqizobod» jamoa xo‘jaligida yashovchi 70 yashar Bibi momo Qoziyevadan sumalak pishirish paytida o‘ynaladigan «Ashshadarоzi» nomli xalq o‘yining etnografik tavsifi va qo‘shiqlarini yozib olgan. Ma’lum bo‘lishicha, «Ashshadarоzi» marosimi (Bu o‘yining etnofolkloristik tavsifi T.Qilichevning «Xorazm xalq teatri» (Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988, 70-75-betlar) kitobidagi ma’lumotlar asosida bayon qilindi) sumalak pishirilayotganda tashkil etilgan. Buning uchun ikki yarim - uch metrlar chamasi uzunlikdagi tayoqning uchidan yarim metrlar pastrog‘idan ko‘ndalang qilib kichikroq bir tayoqcha bog‘langan. Tepa qismida qo‘l shakli hosil qilingan ana shu tayoqqa uzun bo‘yli bir ayolning ko‘ylagini kiygizishgan va uning uchiga bir ro‘molni ham tang‘ib, odam boshiga o‘xshatib qo‘yanlar. Uzun bo‘yli yog‘och qo‘g‘irchoqning boshiga xorazmcha duziy do‘ppi kiygizib, ustidan oq ipak ro‘mol tashlaganlar. Uzun ko‘ylakli bu qo‘g‘irchoq «Ashshadarоzi» deb atalgan. Ayollardan biri qo‘g‘irchoqqa kiygizilgan uzun ko‘ylakning ichiga kirib olib, Ashshadarozini ko‘tarib, sumalak pishirilayotgan joyga olib borgan. Odatda, so‘zga chechan, xalq qo‘shiqlarini mahorat bilan ijro eta oladigan ayolga Ashshadarоzi roli topshiriladi. U uzun ko‘ylakli sarvqomat qo‘g‘irchoq – kelinchakni 51 ko‘targancha davraga kirib borar ekan, sumalak sayliga yig‘ilgan ayollardan biri erkakcha kiyinib o‘rtaga chiqadida, shunday qo‘shiq boshlaydi: Ashshadarоzi mevaram, Vaqt namozi bevaram, O‘n barmog‘ini o‘ynatib, Boqqan oningga bir salom! Shunda Ashshadarоzi, avval, sumalak sayliga bosh - qosh bo‘lib turgan tabarruk momolarga, katxudo-kayvonilarga, so‘ngra barcha davra ahliga ta’zim qilib, salom soladi. Qiz-juvonlar uning tavoze bilan egilib salom berishini zo‘r xursandchilik bilan olqishlaydilar. Erkakcha kiyingan xotin bilan Ashshadarоzi rolini bajarayotgan ayol o‘rtasidagi aytishuv esa davom

ettiriladi. Keltirilgan barcha marosimlar mag‘zida xalqimizning qadim qish va yoz haqidagi dunyoqarashlari, mifologik tasavvurlar tizimi turadi.

Ko’pgina adabiyotlarda ushbu tizim aniq aks etgan: Tavsifi Yoz (ko’klam) Qish (kuz) Marosimi, «Boychechak» marosimi Ko‘k bo‘ri (ko‘pkari, uloq xalq o‘yini) O‘simplik timsoli Boychechak Urug‘ (tariq, bug‘doy), Zoomorfik timsol Echki (uloq) Bo‘ri, Insoniy timsol Qiz-Yigit 52 Asosiy qo‘shiplari «Boychechak», «Ashshadorozi», «Qoshingni qaro deydilar» o‘yin raqlari «Kichkinajon kichkina», «Gurgak». Muqaddas taomi Sumalak Yorma (halim) Yulduzlari Qambar Hulkar Xalqimizning bahor fasli bilan bog‘liq an’anaviy marosimlaridan biri «Halinchak uchish» yoki «Arg‘imchoq uchish» marosimidir. An’anaga ko‘ra, bayram kunlari qiz-juvonlar to‘planishib, bog‘sayriga chiqqanlar. Azim o‘riklarning baquvvat shoxlariga arqon tashlab, arg‘imchoq – halinchaklar yasashgan, hamma navbati bilan arg‘imchoq uchgan. Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanidagi Tangachar qishlog‘ida yashovchi Yaxshigul momo Mulla Niyozberdi qizining aytishicha, kimki Navro‘zda arg‘imchoq uchsa, yil bo‘yi bilib-bilmay qilgan gunohlari «to‘kilarmish». Shu bois, keksa momolar ham «Arg‘imchoq uchsak, savob bo‘ladi! Og‘irligimiz yerga to‘kiladi, qushdek yengil bo‘lamiz!» – deyishib, hazil-huzul bilan arg‘imchoq uchishgan. Nabiralari esa «momolarimizning yoshiga yetaylik» degan ezgu niyatda arg‘imchoqning ipidan tutib harakatlantirganlar.

Xalqimizning Navro‘z bayrami bilan aloqador marosimlari sirasiga kiradigan an’anaviy «Qizil gul» sayli agrar kultlar va hosildorlik g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan qadimi umumxalq tantanalaridan biridir. «Qizil gul» sayli o‘ziga xos qo‘shiplar tizimiga ega bo‘lgan qadimi mavsumiy tantanalardan biri bo‘lib, har yili bahorda qizil gullar ochilgan paytda an’anaviy tarzda o‘tkazib kelingan. U o‘z tarkibiga xalq qo‘shiqchilik san’ati, o‘yin folklori, raqs, xalq teatri, hunarmandchilik, urf-odat va marosimlarni qamrab olgan ma’naviy qadriyat namunasi sanaladi.

Yomg‘ir chaqirish bilan bog‘liq marosimlarning keng tarqalgan ko‘rinishi «Sust xotin» deb atalgan bo‘lib, bu marosimga oid ilk ilmiy qayd muallifi o‘lkashunos G.Arandarenkodir. U o‘zining 1877-yilda yozilgan Zarafshon vohasi aholisining metereologik qarashlariga oid bir maqolasida yomg‘ir yog‘dirish marosimi bilan bog‘liq «Sust xotin» marosimi qo‘shig‘ining bir namunasini keltirgan. Unga ko‘ra, mazkur marosimda quyidagi qo‘shiq ijro etilgan: Yomg‘ir yog‘sin, Susxotin, Arpa pishsin, Susxotin, Sigir iysin, Sust xotin. Ko‘klam qurg‘oq kelib lalmiga ekilgan bug‘doy o‘smay qolsa, o‘n-o‘n besh chog‘li yigit-yalanglar yig‘ilishib, bir bolani eshakka teskari mindirib, qo‘liga suv to‘lg‘azilgan kadini tutqazib qo‘yishadi. Ikkita toshbaqani tutib kelib, oyog‘iga ip bog‘lab, eshakka osishadi. Joni og‘rigan jonivorlar zorlanib ovoz chiqaradi. Eshak ustidagi bola esa qo‘lidagi kadiga solib qo‘yilgan naychani aylantirib, toshbaqa ovoziga monand holda «g‘urr-g‘urr» deb baqiradi. Shunday qilib, yigitlar uyma-uy yurishar, har uyga borganda eshak mingan bola: «Voy, jonim! Kuydim-ey! Kuydim-ey!» - debqichqiradi. Xonodon sohibi bo‘lsa bir chelak suv chiqarib haligi bolaning ustiga sepadi. Yigitlar uy egasi bergen don-dun yoki boshqa biror yegulikni olib qo‘shiq aytgancha boshqa hovli tomon yurishadi: Havo yog‘mas bo‘larmi, Tomchi tommas bo‘larmi, Saksondagi kampirlarni, Suv oqizmas bo‘larmi, Sust xotin-o, sust xotin, Ko‘ylaklari bo‘z xotin. Dehqonlarni g‘am bosdi, Omochlarni chang bosdi, Havo yog‘sin zarchalab, Bug‘doy

bo‘lsin shoxchalab, Sust xotin-o, sust xotin, Ko‘ylaklari bo‘z xotin. Ko‘lbuloqlik Sa’dulla Mirsaparovning xotirlashicha, «Sust xotin» marosimini o‘tkazayotganda dehqonlar omochlarining uchini tepaga qaratib qo‘yishgan. Omochning tig‘iga bitta toshbaqani osib qo‘yib qiyaganlar. Go‘yo jonivorning qiynganini ko‘rib rahmi kelgan Xudo yomg‘ir yuboradi deb umid qilganlar. Ayollar esa uyma-uy yurishib, «Sust xotin» qo‘shig‘ini aytishgan. Uy egasi bug‘doy chiqarib bersa, xotinlar: «Oblohu akbar! Guldur momo, Jaldir momo kelsin, yomg‘ir yog‘sins, hammamiz seroblikka chiqaylik!» – deb niyat qilisharkan. Marosim nihoyasida yig‘ilgan dondundan osh pishirib, elga tarqatadilar. Yozgi marosimlar folklori janrlari: shamol chaqirish («Yo Haydar») va shamol to‘xtatish marosimlari («Choy momo», «Yalli momo»), «Haqullo». Marosimning uchinchi lokal varianti Sayram tumanining Pushkin nomli jamoa xo‘jaligida qayd qilingan.

Hozirda ta’lim-tarbiya tizimida asl milliy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda va ko‘ngil tarbiyasiga, ya’ni inson ma’naviyatini shakillantirishga birlamchi vazifa sifatida yondashish ustuvor bo‘lib bormoqda. Binobarin, yosh avlodni yoshligidan ma’naviyatli qilib tarbiyalashga e’tibor berib borilsa, u o‘zining katta samarasini beradi. Bolalarimizda kitobga mehr, ishtiyoq uyg‘otish uchun, avvalo, o‘zimiz unga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishimiz lozim. Adabiyotga mehr qo‘yishning o‘zida bir hikmat bor.

#### **Adabiyotlar:**

1. Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. –T.: O‘qituvchi 1975.
2. Safarov O. O‘zbek bolalar poetik folklori.– T.:O‘qituvchi, 1985.
3. Boychechak. Qo‘shiqlar.–T.:1984.
4. Turdimov Sh. Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlar. – Toshkent: Fan, 2011.
- 5.Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent: O‘zbekiston, 2012. 112 b.
6. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. 120 b.
7. Eshonqul J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. – Toshkent: Fan, 2011.

## TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

### **MATSABIROVA DURDONA MAKSDUDJON QIZI**

*(Urganch davlat universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili) ta’lim yo‘nalishi  
2-bosqich talabasi  
e-mail: [durdonamatsabirova@gmail.com](mailto:durdonamatsabirova@gmail.com))*

### **Ilmiy rahbar: YUSUPOVA GULXUMOR**

*(Urganch davlat universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasи o‘qituvchisi)*

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.1504924>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalari tahlil qilinadi. Tilshunoslikning asosiy nazariy yo‘nalishlari – fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika, pragmatika va sotsiolingvistika kabi sohalar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, amaliy tilshunoslikning tarjima nazariyasi, kompyuter lingvistikasi, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi hamda huquqiy lingvistika kabi yo‘nalishlari yoritiladi. Maqolada zamonaviy texnologiyalar va sun‘iy intellektning tilshunoslikdagi roli ham muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Tilshunoslik, fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika, pragmatika, sotsiolingvistika, tarjima nazariyasi, kompyuter lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, huquqiy lingvistika, xorijiy tillarni o‘qitish, sun‘iy intellekt.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical and practical issues of linguistics. The main theoretical directions of linguistics phonology, morphology, syntax, semantics, pragmatics, and sociolinguistics are examined. In addition, practical aspects such as translation theory, computational linguistics, foreign language teaching methodology, and legal linguistics are discussed. The article also highlights the role of modern technologies and artificial intelligence in linguistics.

**Keywords:** Linguistics, phonology, morphology, syntax, semantics, pragmatics, sociolinguistics, translation theory, computational linguistics, cognitive linguistics, legal linguistics, foreign language teaching, artificial intelligence.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и практические вопросы лингвистики. Анализируются основные теоретические направления лингвистики, такие как фонология, морфология, синтаксис, семантика, прагматика и социолингвистика. Также обсуждаются прикладные аспекты, включая теорию перевода, компьютерную лингвистику, методику преподавания иностранных языков и юридическую лингвистику. В статье подчеркивается роль современных технологий и искусственного интеллекта в лингвистике.

**Ключевые слова:** Лингвистика, фонология, морфология, синтаксис, семантика, прагматика, социолингвистика, теория перевода, компьютерная лингвистика, когнитивная лингвистика, юридическая лингвистика, преподавание иностранных языков, искусственный интеллект.

**KIRISH.** Tilshunoslik – inson tilini ilmiy o‘rganadigan fan bo‘lib, u nazariy va amaliy jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tilshunoslik nafaqat til tizimini tushunish, balki uni amaliy jihatdan qo‘llash, tarjima, lingvistik texnologiyalar va til o‘rgatish jarayonlarini o‘rganish bilan ham shug‘ullanadi. Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy nazariy yo‘nalishlari va amaliy masalalari tahlil qilinadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Tilshunoslik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar uzoq tarixga ega bo‘lib, u turli maktab va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Tilshunoslikning dastlabki asoslari qadimiy yunon va rim faylasuflari – Aristotel, Platon, Varro asarlarida aks etgan. Keyinchalik Ferdinand de Sossyur (Course in General Linguistics, 1916) tilshunoslikni mustaqil fan sifatida shakllantirdi va strukturalizm yondashuvini asos soldi.

XX asrda Noam Xomskiy generativ grammatika nazariyasini ishlab chiqdi [2]. Shu bilan birga, XX-XXI asrlarda tilshunoslikda sotsiolingvistika (William Labov), pragmatika (John Searle, Paul Grice), kognitiv tilshunoslik (George Lakoff) va hisoblash lingvistikasi kabi yo‘nalishlar rivojlandi.

O‘zbek tilshunosligida ham nazariy va amaliy tadqiqotlar davom etmoqda. Xususan, Mahmudov va Jo‘raev tomonidan o‘zbek tilining leksikologik va stilistik jihatlari tahlil qilingan [8]. Jo‘raev esa o‘zbek tili sintaksisi va gap tuzilishini batafsil o‘rgangan [10]. Shu bilan birga, Rasulov tilshunoslikning umumiy nazariy asoslarini tahlil qilib, uning turli yo‘nalishlarini yoritgan [9].

Shunday qilib, tilshunoslik nazariy va amaliy jihatlarning uyg‘unligi asosida rivojlanishi zarur. Nazariy yondashuv til tizimining ichki mexanizmlarini ochib bersa, amaliy tadqiqotlar uning turli sohalarda qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda til birliklarining tuzilishi va funksiyalarini tahlil qilish uchun tavsifiy, qiyosiy-tipologik va struktur-semantik metodlar qo‘llanildi. Pragmatik va sotsiolingvistik yondashuvlar tilning kommunikativ hamda ijtimoiy jihatlarini o‘rganishga yordam berdi. Tarixiy-komparativ metod esa til birliklarining rivojlanishini tahlil qilish uchun ishlatildi. Shu tariqa, tadqiqotning nazariy va amaliy asoslari kompleks tahlil qilindi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

#### **Tilshunoslikning nazariy jihatlari**

Til murakkab tizim bo‘lib, u turli darajalardagi birliklarni o‘z ichiga oladi va quyidagi asosiy bo‘limlarga ajratiladi:

**Fonologiya** – tilning tovush tizimini o‘rganadi. Har bir tilning o‘ziga xos fonetik va fonologik xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular fonemalar tizimi, urg‘u, intonatsiya va boshqa fonetik hodisalarini qamrab oladi.

**Morfologiya** – so‘zlarning tuzilishi va shakllanish qoidalarini o‘rganadi. Bu bo‘limda so‘z yasash, so‘z turkumlari va morfologik paradigmalar tahlil qilinadi.

**Sintaksis** – gaplarning tuzilishini, so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Sintaksis doirasida so‘z birikmalari, gap tuzilmalari va sintaktik birliklarning mantiqiy aloqalari tadqiq qilinadi.

**Semantika** – so‘z va gaplarning ma’nosini o‘rganadi. Semantik tadqiqotlar doirasida so‘z ma’nolarining shakllanishi, polisemantik birliklar, sinonimiya, antonimiya, metafora va boshqa ma’no hodisalari tahlil qilinadi.

**Pragmatika** – tilning nutqiy holatlardagi ishlatilishini o‘rganadi. Bu bo‘limda kontekst, nutq aktlari, maqsadli kommunikatsiya, implikatura va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi [4].

**Sotsiolingvistika** – til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Bu yo‘nalish doirasida dialektlar, kasbiy jargonlar, bilingvizm, diglossiya, ijtimoiy dialektlar va til o‘zgarishlari kabi hodisalar tadqiq qilinadi [3].

**Tarixiy va qiyosiy tilshunoslik** – tillarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash va ularning kelib chiqishini o‘rganadi. Qiyosiy-genealogik usul yordamida turli tillarning qarindoshlik munosabatlari aniqlanadi va ularning umumiy ildizlari tadqiq qilinadi.

**Kognitiv tilshunoslik** – til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqani o‘rganadi. Bu yo‘nalish inson ongida til birliklarining shakllanishi, tushunilishi va qo‘llanilishi bilan bog‘liq jarayonlarni tadqiq qiladi.

Shunday qilib, tilshunoslik turli yo‘nalishlarda tadqiq qilinadigan keng qamrovli fan bo‘lib, uning har bir bo‘limi tilning o‘ziga xos jihatlarini yoritadi.

### **Tilshunoslikning amaliy jihatlari**

#### **Amaliy tilshunoslik va tarjima nazariyasi**

Tilshunoslikning amaliy sohasi turli yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, tarjima nazariyasi turli tillar o‘rtasida ekvivalentlikni ta’minalash, semantik va stilistik tafovutlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

#### **Kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt**

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi bilan tilshunoslikning amaliy sohasi kengayib bormoqda. Mashinaviy tarjima, ovoz tanish tizimlari va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan lingvistik dasturlar tilshunoslikning amaliy muammolariga yechim topishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### **Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi**

Tilshunoslikning amaliy jihatlaridan biri xorijiy tillarni o‘qitish metodikasıdir. Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, kommunikativ metod, interaktiv ta’lim va multimedya texnologiyalaridan foydalanish til o‘rganish jarayonini samarali qiladi.

#### **Huquqiy va sud lingvistikasi**

Huquqiy lingvistika huquqiy matnlarni tahlil qilish, qonunlarning aniq tushunilishini ta’minalash bilan shug‘ullanadi. Sud lingvistikasi esa nutqiy ekspertiza va sud jarayonlarida lingvistik dalillardan foydalanish sohasini o‘rganadi.

Tilshunoslikning nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilishda til tizimining tuzilishi, rivojlanishi va qo‘llanilishiga oid muhim jihatlar ko‘rib chiqildi. Nazariy tilshunoslik nuqtayi nazaridan, fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantika kabi asosiy bo‘limlarning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi. Qiyosiy-tipologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, turli tillarning grammatic va semantik xususiyatlari o‘rtasida umumiylig va tafovutlar mavjud bo‘lib, bu lingvistik universaliyalarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Amaliy tilshunoslik jihatidan esa tarjima, til o‘qitish, sotsiolingvistik hodisalar va pragmatik omillar tadqiq etildi. Tilning kommunikativ funksiyalari va ijtimoiy omillar ta’sirida o‘zgarishi sotsiolingvistik yondashuv asosida tahlil qilindi. Shuningdek, til

birliklarining kontekstga qarab qanday ma’no kasb etishi va nutq jarayonida qanday shakllanishi pragmatik tadqiqotlar asosida o‘rganildi.

Umuman olganda, nazariy tilshunoslik til tizimini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qilsa, amaliy yo‘nalish uning turli sohalarda qo‘llanilishini tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli, tilshunoslik nazariy va amaliy jihatlarning uyg‘unligi asosida o‘rganilishi zarur.

**XULOSA.** Tilshunoslik fani nazariy va amaliy jihatdan keng qamrovli bo‘lib, inson nutqi, til tizimi va uning qo‘llanilishiga oid muhim masalalarni o‘rganadi. Ushbu maqolada tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlari – fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika, pragmatika, sotsiolingvistika kabi nazariy jihatlar hamda tarjima nazariyasi, xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt kabi amaliy jihatlar tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, tilshunoslik nafaqat tilning ichki tuzilishini tushuntirish, balki uning jamiyatdagi o‘rnini, madaniy ta’sirini va texnologiyalar bilan integratsiyasini ham o‘rganishi zarur. Xususan, nazariy tilshunoslik til birliklarining strukturaviy va funksional jihatlarini oolib beradi. Amaliy tilshunoslik esa tarjima, xorijiy tillarni o‘qitish, kompyuter lingvistikasi va sun’iy intellekt sohalarida muhim natijalarga olib kelmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

*Xalqaro manbalar:*

1. Saussure F. de. *Umumiyl tilshunoslik kursi.* McGraw-Hill, 1916.
2. Chomsk N. *Sintaktik tuzilmalar.* Mouton, 1957.
3. Lab V. *Sotsiolingvistik naqshlar.* University of Pennsylvania Press, 1972.
4. Grice, P. *So‘zlarning ishlatalishi bo‘yicha tadqiqotlar.* Harvard University Press, 1989.
**Ключевые слова:** инклюзивное образование, жанр рассказа, дети с ограниченными возможностями, пассивные методы, активные методы, интерактивное обучение, современная педагогика.

### **KIRISH**

Zamonaviy ta'limgardarida imkoniyati cheklangan bolalarga sifatli ta'limgardar berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda bizning mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarga, yoshlarga ta'limgardar berish borasida yangidan yangi islohotlar olib

borilmoqda, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, mamlakatimiz har qanday imkoniyatga ega yoshlari uchun, barcha imkoniyat eshiklarini oshib bermoqda. Ayniqsa, ularning til va adabiyotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanib kelmoqda va imkoniyat boricha ushbu ta’limni ular uchun umkoniyatini kengaytirilmoqda. Pedagogik amaliyotda hikoya janrini o‘qitishda turli metodik usullardan foydalaniladi, ular orasida faol va passiv usullar alohida ahamiyat kasb etadi. Passiv metodlar odatda o‘quvchilarning tayyor axborotni qabul qilishiga asoslangan bo‘lsa, faol metodlar esa ularni mustaqil fikrlash va muhokama jarayoniga jalg etishga qaratilgan. Shu bois imkoniyati cheklangan bolalar uchun hikoya janrini o‘qitishda mazkur metodlarning samaradorligini aniqlash, ularning ta’lim sifatiga ta’sirini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. [1]

Ushbu maqola hikoya janrini o‘qitishning passiv va faol metodlarini tahlil qiladi, ularning imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim jarayoniga qay darajada ta’sir etishini o‘rganadi. Tadqiqot davomida ta’lim metodik usullarining samaradorligi, ularni amaliyotda qo‘llash metodlari hamda o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ta’siri tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda mavjud metodikalar asosida samarali o‘qitish strategiyalariishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ham berib o‘tiladi. [2]

## METODLAR

Mazkur maqola tadqiqotida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga hikoya janrini oq’itishning passiv va faol metodik uslublarini tahlil qilish hamda ularning samaradorligini baholash uchun sifat va miqdoriy tadqiqot metodikalari uyg‘unligidan foydalanildi. Tadqiqot eksperimental va nazariy tahlillar asosida olib borilib, quyidagi metodlarga tayanildi

### 1.Eksperimental tadqiqot usuli

Ushbu tadqiqot Toshkent shahridagi maxsus ta’lim muassasalarining 3-5-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi. Tajriba uch bosqichdan iborat bo‘lib, dastlab o‘quvchilarning hikoya janrini o‘zlashtirish darjasasi aniqlandi. Keyingi bosqichda esa passiv va faol metodikalar alohida sinflarda tadbiq qilindi va olingan natijalar taqqoslandi.

**- Passiv metodikani qo‘llash:** O‘quvchilarga hikoya tinglash, o‘qituvchi tomonidan bayon qilish va tayyor matnni tushuna olish kabi an’anaviy metodlar orqali o‘rgatildi.

**- Faol metodikani qo‘llash:** O‘quvchilar bilan birgalikda rolli o‘yinlar, interfaol muhokalar, visual va audio vositalar yordamida bolalarga mustaqil hikoya tuzishga ko‘nikmalar va tushunchalar berildi.

Olingan natijalar esa oldindan belgilangan baholash mezonlari asosida tahlil qilindi.

### 2.Anketalar va intervylular

Tadqiqot doirasida maxsus maktab o‘qituvchilari va defektologlar bilan intervylular tashkil etildi. Shuningdek, ota-onalar va o‘quvchilardan so‘rovnomalari olinib, qaysi metodlarning samaraliroq ekanligi bo‘yicha fikrlar to‘plandi. Ushbu ma’lumotlar hikoya janrini o‘qitish jarayonida duch kelinayotgan qiyinchiliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

### 3.Nazariy tahlil

Ilg‘or pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilinib, imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olish xususiyatlari o‘rganildi. Xususan, zamonaviy inklyuziv ta’lim konsepsiylarida passiv va faol metodlarning qanday qo‘llanilishi chuqr tahlil qilindi. Shu bilan birga, xorijiy tajribalar, jumladan, AQSh, Germaniya va Janubiy Koreyada maxsus ta’lim bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari ham ko‘rib chiqildi.

### 4.Statistik tahlil

Tajribaviy natijalarini obyektiv baholash maqsadida statistik tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot davomida passiv va faol metodlar asosida o'qitilgan bolalarning hikoya janrini o'zlashtirish darajasi taqqoslanib, chi-kvadrat testi va dispersiya tahlili (ANOVA) yordamida natijalar ishonchhliligi tekshirildi. [3]

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, faol metodlar yordamida o'qitilgan o'quvchilar hikoya tarkibini tushunish, voqealarni mustaqil bayon qilish va kreativ fikrlash bo'yicha yuqori natijalarga erishdi. Shu boisdan, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslashda passiv va faol metodlarning kombinatsiyalangan holda qo'llanishi eng samarali yondashuvlardan biri sifatida e'tirof etildi.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijalari imkoniyati cheklangan bolalarga hikoya janrini o'qitishda passiv va faol metodik usullarning samaradorligini aniqlashga qaratildi. O'rganilgan ma'lumotlar asosida ikki yondashuvning ta'siri taqqoslanib, eksperiment natijalari statistik tahlil qilindi.

### 1. Eksperiment natijalari tahlili

Eksperiment maxsus ta'lim muassasalarining 3–5-sinf o'quvchilarini o'rtaida o'tkazilib, ikki guruhda amalga oshirildi:

- Passiv metodlar asosida o'qitilgan guruhi** – o'qituvchi tomonidan hikoyalar o'qib berilgan, tayyor matnlar muhokama qilingan, audiokitoblardan foydalananligi.
- Faol metodlar asosida o'qitilgan guruhi** – o'quvchilar hikoya yaratishga jalb qilingan, rolli o'yinlar, vizual va audio materiallar, muhokama va interfaol metodlar qo'llangan.

**O'quvchilarning o'zlashtirish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:**

- **Matnni tushunish** – hikoya mazmunini eslab qolish va uni qayta hikoya qilish qobiliyati
- **Ijodkorlik** – yangi hikoya tuzish, voqealar rivojini o'ylab toppish
- **Muloqot ko'nikmalari** – guruhda ishslash, fikr bildirish, savollarga javob berish

Natijalar quyidagi jadvallarda keltirilgan:

#### 1-jadval. Ikki guruhning natijalari taqqoslanishi (%)

O'zlashtirish mezonlari	Passiv metodlar guruhi	Faol metodlar guruhi
Matnni tushunish	62%	85%
Ijodkorlik	48%	79%
Muloqot ko'nikmalari	55%	88%

Ushbu natijalardan ko'rinish turibdiki, faol metodlar asosida o'qitilgan bolalar hikoya mazmunini yaxshiroq tushunib, mustaqil hikoya tuzish va muloqot qilishda yuqori natijalarga erishgan.[4]

### 2. Xorijiy tajriba natijalari

**AQSh:** Harvard universiteti tomonidan maxsus ta'limga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, imkoniyati cheklangan bolalarga hikoya janrini o'qitishda interfaol yondashuv (rol o'ynash, video hikoyalar yaratish) ularning o'quv motivatsiyasini 40% ga oshiradi.

**Finlandiya:** Inklyuziv ta'lim bo'yicha tadqiqotlarga ko'ra, maxsus ta'lim muassasalarida multimedialiaviy resurslar qo'llanilganda bolalarning hikoya tuzish qobiliyati 35% ga oshgan.

**Janubiy Koreya:** Seoul universiteti olimlari o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, robot yordamida hikoya aytish texnologiyasi erta yoshdagagi imkoniyati cheklangan bolalarda matn tushunish darajasini 30% ga yaxshilagan.[7]

### 2-jadval. Xorijiy tadqiqotlar natijalari

Mamlakat	Qo'llangan usul	Natija (%)
AQSh	Rolli o'yin va video hikoyalar	40% motivatsiya oshishi
Finlandiya	Multimediaviy resurslar	35% hikoya tuzish yaxshilanishi
Janubiy Koreya	Robot yordamida hikoya aytish	30% matn tushunish oshishi

### 3. Statistika va tahlil

Eksperiment davomida **chi-kvadrat testi** yordamida natijalar farqi statistik jihatdan ishonchli ekani aniqlandi ( $p < 0.05$ ). Bu esa faol metodlarning passiv metodlarga qaraganda samaraliroq ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, dispersiya tahlili (ANOVA) yordamida o'quvchilarning natijalari o'zaro taqqoslanib, faollik asosida o'qitilgan bolalar yuqori natijalarga erishgani qayd etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, imkoniyati cheklangan bolalarga hikoya janrini o'qitishda faol metodik usullar an'anaviy (passiv) yondashuvlarga qaraganda samaraliroq hisoblanadi. Xususan:

- ✓ Faol metodlar o'quvchilarning matnni tushunish, ijodkorlik va muloqot ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.
- ✓ Xorijiy tadqiqotlar ham interfaol yondashuvlar samaradorligini tasdiqlaydi.
- ✓ Zamonaviy texnologiyalar (multimedia, robot yordamida o'qitish) bu jarayonni yanada samarali qiladi.

Shu boisdan, maxsus ta'lif muassasalarida hikoya janrini o'qitishda faollikkaga asoslangan yondashuvlarni keng joriy etish tavsiya etiladi.

### MUHOKAMA

Imkoniyati cheklangan bolalarga hikoya janrini o'qitish jarayoni turli pedagogik yondashuvlarni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, passiv va faol metodlarning ta'siri sezilarli farqlarga ega bo'lib, faol metodlar bolalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirishda ancha samarali hisoblanadi. Ushbu natijalar xorijiy tajribalar bilan taqqoslanganda ham dolzarbligini tasdiqlaydi.

### 1. Passiv va faol metodlarning samaradorligi

Eksperiment davomida passiv metodlar yordamida ta'lif olgan bolalar hikoyalarni eslab qolishda nisbatan yaxshi natijalarga erishgan bo'lsa-da, ularning ijodkorlik va muloqot ko'nikmalari sust rivojlanganligi kuzatildi. Bunga asosiy sabab sifatida passiv o'qitish jarayonida bolalar faqat tayyor axborotni qabul qilishlari, lekin uni qayta ishlab, mustaqil fikrlashga yetarlicha jalb qilinmasliklari qayd etildi.

Aksincha, faol metodlar qo'llanilgan guruhda bolalar hikoyalarni tushunish, mustaqil tahlil qilish va yangi g'oyalar yaratish bo'yicha yuqori natijalarga erishdi. Xususan, rolli o'yinlar, interfaol suhbatlar va vizual materiallar orqali hikoyalarni jonlantirish bolalarning qiziqishini oshirib, ularning nutq va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qildi.

Bu natijalar Finlandiya va AQSh ta'lif tizimidagi inklyuziv ta'limga oid tadqiqotlar bilan hamohangdir. Masalan, **Harvard universiteti** o'tkazgan tadqiqotda interfaol hikoya bayon qilish metodikasi qo'llanilganda o'quvchilarning matnni tushunish darjasasi 40% ga

oshgani aniqlangan. Finlandiya inklyuziv ta'lim modellari esa multimedaviy resurslar qo'llanganda ijodiy fikrlash darajasi 35% ga yaxshilanganligini ko'rsatgan.

## **2. Zamonaviy texnologiyalarning o'rni**

So'nggi yillarda imkoniyati cheklangan bolalarga mo'ljallangan ta'lim texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Xususan, **Janubiy Koreya** tajribasida sun'iy intellekt va robotlardan foydalanish natijasida hikoya janrini o'qitish samaradorligi 30% ga oshgan. Bunday texnologiyalar bolalarga nafaqat hikoyalarni tushunish, balki ularni mustaqil ravishda yaratishda ham yordam beradi.

Tadqiqot davomida multimedaviy ta'lim vositalari – interaktiv kitoblar, audiovizual materiallar va animatsiyalarning samaradorligi ham o'rganildi. Ularning o'quv jarayoniga integratsiyasi hikoya janrini o'rganishni yanada qiziqarli va tushunarli qilishini ko'rsatdi. Shu sababli, keljakda bunday texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etiladi.[8]

## **3. O'qituvchilarining roli va maxsus ta'lim yondashuvlari**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilarining imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash bo'yicha malakasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ishtirok etgan pedagoglarning fikriga ko'ra, hikoya janrini o'qitishda quyidagi yondashuvlar samarali natija beradi:

**Individual yondashuv** – har bir bolaning qobiliyatiga mos metod tanlash

**Kombinatsiyalangan usul** – passiv va faol metodlarning uyg'unlashuvi

**Texnologik integratsiya** – zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

Shuningdek, AQShning maxsus ta'lim sohasidagi tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun o'qituvchilar doimiy ravishda malaka oshirib borishlari kerak. Shu sababli, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi o'qituvchilarga maxsus trening va seminarlarni muntazam o'tkazish tavsiya etiladi.

## **4. Faol va passiv metodlarning kombinatsiyasi**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hikoya janrini o'qitishda faqat passiv yoki faqat faol metodlardan foydalanish yetarli emas. Samarali natijaga erishish uchun ularning kombinatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, **dastlab hikoya passiv usulda bayon qilinib, keyin o'quvchilar faol ravishda hikoya yaratish jarayoniga jalb qilinganda** eng yaxshi natijalar qayd etildi. Bu metodik yondashuv xorijiy ta'lim modellari bilan hamohangdir. **Kanada maxsus ta'lim tadqiqotlari** shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi tomonidan hikoya o'qib berilgandan so'ng bolalarni mustaqil hikoya tuzishga rag'batlantirish ularning xotira va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini 50% ga yaxshilaydi.

Muhokama qilingan natijalar shuni ko'rsatdiki:

Faol metodlar yordamida o'qitilgan bolalar hikoya tarkibini yaxshiroq tushunib, mustaqil ravishda hikoya yaratishda muvaffaqiyatli bo'ldilar. Zamonaviy texnologiyalar – sun'iy intellekt, robotlar va multimedaviy vositalar o'quv jarayonini samaraliroq qilishga yordam beradi. O'qituvchilarining metodik yondashuvi va maxsus tayyorgarligi ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Eng yaxshi natijalar passiv va faol metodlarning uyg'unlashuvi orqali erishilgan.

Shu boisdan, imkoniyati cheklangan bolalarga hikoya janrini o'qitishda individual yondashuv, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni birlgilikda qo'llash eng samarali strategiya hisoblanadi.[5]

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Imkoniyati cheklangan bolalarga hikoya janrini o'qitish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, passiv va faol metodlarning samaradorligi sezilarli darajada farqlanadi. Passiv metodlar – o'qituvchining hikoya o'qib berishi, tayyor matnlar orqali bilim berishi – bolalarning hikoyalarni tushunish darajasini oshirishga yordam bergen bo'lsa-da, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda yetarli natijalar bermadi.

Aksincha, faol metodlar – rolli o‘yinlar, vizual materiallar, muhokamalar va interfaol mashg‘ulotlar – o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy hikoya tuzish ko‘nikmalarini ancha rivojlantirdi.

Xorijiy tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan:

• **AQSh (Harvard universiteti)** tadqiqotlari interfaol metodlar (video hikoyalar, rolli o‘yinlar) yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi 40% ga oshganini ko‘rsatdi.

• **Finlandiya** inklyuziv ta’lim modelida multimedaviy materiallar orqali hikoya yaratish tajribasi bolalarning ijodiy tafakkurini 35% ga oshirgan.

• **Janubiy Koreya (Seoul universiteti)** sun’iy intellekt va robotlar orqali hikoya o‘qitish natijasida matn tushunish qobiliyatining 30% ga yaxshilanganini aniqladi.

Shu boisdan, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslashda an’anaviy (passiv) usullarni interfaol (faol) metodlar bilan uyg‘unlashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va individual yondashuvni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va xorijiy tajribalar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

### **1. O‘qitish metodikasini takomillashtirish**

**Passiv va faol metodlarni integratsiya qilish** – dastlab hikoya an’anaviy tarzda o‘qib berilib, so‘ng o‘quvchilar mustaqil hikoya yaratishga rag‘batlantirilishi lozim.

**Differensial yondashuv** – har bir bolaning imkoniyatiga mos metod tanlash, masalan, eshitish qobiliyati cheklangan bolalar uchun audiokitoblar, ko‘rish qobiliyati cheklangan bolalar uchun Braille alifbosi asosida hikoya yozish amaliyotini rivojlantirish.

### **2. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish**

**Interaktiv multimedia vositalarini keng joriy etish** – maxsus vizual materiallar, audiovizual animatsiyalar, elektron kitoblar yordamida bolalarning qiziqishini oshirish.

**Sun’iy intellekt va robotlar yordamida o‘qitish** – Janubiy Koreya tajribasida bo‘lgani kabi, hikoyalarni ovozli yordamchilar yoki robotlar orqali taqdim etish va shu orqali o‘quvchilarning matnni tushunish qobiliyatini oshirish.

### **3. O‘qituvchilarning malakasini oshirish**

**Maxsus treninglar va seminarlar tashkil etish** – pedagoglar imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslash bo‘yicha doimiy ravishda yangilangan metodikalardan xabardor bo‘lishi kerak.

**Xorijiy tajribalardan foydalanish** – AQSh va Yevropa davlatlaridagi maxsus ta’lim modellarini o‘rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish.

### **4. O‘quvchilarni faol jalb qilish**

**Guruhiy ishslash va ijtimoiy muloqotni rivojlantirish** – bolalar birgalikda hikoya yaratish, sahnalashtirish va rolda ijro etish orqali ko‘nikmalarini mustahkamlashlari lozim.

**Hikoya yozish tanlovlari va maxsus dasturlar ishlab chiqish** – imkoniyati cheklangan bolalar o‘z ijodiy hikoyalarini yozib, ularni maxsus platformalarda nashr qilishlari uchun sharoit yaratish.

Tadqiqot natijalari va xorijiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan bolalarga hikoya janrini o‘qitishda **faol metodlar, zamonaviy texnologiyalar va interfaol yondashuvlar** an’anaviy usullarga qaraganda samaraliroqdir. Kelajakda inklyuziv ta’limni yanada rivojlantirish uchun pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va o‘quv jarayoniga ilg‘or texnologiyalarni qo‘sish lozim. Shu sababli, imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlovchi o‘qituvchilar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish va yangi metodologiyalarni sinovdan o‘tkazish ta’lim sifati oshishiga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xakimova Sayyora Adilovna, Utabaeva Shoira Yuldasbaevna. "Imkoniyati cheklangan bolalarni ta'lim-tarbiya olishida inklyuziv ta'limning ahamiyati." E Conference Zone, 2022. <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/442>
2. Jovbo'riyev Javohir Toshtemir o'g'li, Abdurasulova Zulayho Xudaynazarovna, Abbasova Maftuna Subxonovna. "Imkoniyatlari cheklangan shaxslar bilan ish olib borish usullari va qiyinchiliklari." ilmiyxabarlar.uz, 2024. <https://ilmiyxabarlar.uz/journal/article/view/1040>
3. Mamatazizova Azizaxon. "Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim jarayonida o'qitishda individual dasturlarni tuzish, metodik va didaktik ta'minotini yaratish." Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2024. <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/155>
4. Umarova Guljahon Erdanovna, Xalilxodjayeva Shaxnoza Gafurovna. "Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga 'ko'rsatkichli funksiya' mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish metodikasi." Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2022. <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/3290>
5. Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li. "Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash pedagogik muammo sifatida." Лучшие интеллектуальные исследования, 2024. <https://web-journal.ru/journal/article/view/6123>
6. "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" gi nizom. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrdagi 638-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs-5679836?type=doc#:~:text=Mazkur%20Nizom%20umumiy%20o%20E%80%98rta%20ta%20E%80%99lim%20tashkilotlarida%20%28keyingi%20o%20E%80%98rinlarda,bolalar%20uchun%20inklyuziv%20ta%20E%80%99limni%20tashkil%20etish%20tartibini%20Obelgilaydi.>
7. Lee, O., & Shin, M. "Adapting National-Level Textbooks for Students With Disabilities in South Korea." *Intervention in School and Clinic*, 2020. <https://journals.sagepub.com/doi/full/10.1177/1053451219855742>
8. "Innovative Teaching Methods for Inclusive Education." Toxigon, 2023. <https://toxigon.com/innovative-teaching-methods-for-inclusive-education>

## YASHIL TEXNOLOGIYALARNING ASOSIY TAMOYILLARI

***Ulugbek Mirmukhamedov***

*Mustaqil izlanuvchi*

***<https://doi.org/10.5281/zenodo.15530019>***

**Annotatsiya.** Maqolada ekologik muammolarni bartaraf etib iqtisosiyotga ijobiy ta'sir etish hamda rivojlantirish tamoyillari ko'rib chiqiladi. Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi, ekologik iqtisodiyot, innovatsiyalar nazariyasi va institutsional nazariyani o'z ichiga olgan asosiy nazariy yondashuvlar tasvirlangan. Yashil rivojlanishi boshqarishning asosiy tamoyillari, masalan, ekologik javobgarlik, resurslardan foydalanish samaradorligi va tsiklik iqtisodiyotga o'tish ko'rib chiqiladi. Boshqaruvning iqtisodiy, tartibga soluvchi, innovatsion va ijtimoiy mexanizmlari tavsiflangan. Shuningdek, ushbu mavzuni o'rganishga uslubiy yondashuvlarga, shu jumladan tizimli tahlil, miqdoriy va sifat usullariga e'tibor qaratiladi.

**Tayanch so`zlar:** ekologik barqarorlik, ekologik muammolar, ekoinnovatsiya, eko-investitsiya, qayta tiklanadigan energiya, iqtisodiyotni ekologizatsiyalash, "yashil" ish o'rnlari, ekologik texnologiyalar, atrof-muhit.

Bugungi kunda insoniyatning o'sishi, sanoatning rivojlanishi va tezkor urbanizatsiya jarayonlari bilan birga ekologik muammolar ham yuzaga kelmoqda. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va ekologik inqiroz kabi muammolarni hal etish uchun innovatsion yechimlar zarur. Yashil texnologiyalar bu muammolarga javob sifatida ishlab chiqilgan texnologik yondashuvlardir. Ushbu maqolada yashil texnologiyalar va barqaror texnologiyalarga yo'l ochish jarayoni, ularning ahamiyati va ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlari tahlil qilinadi. Yashil texnologiyalar ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, shu bilan birga, barqaror texnologiyalarni rivojlantirishga olib keladi.

Yashil texnologiyalar – bu ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, hamda iqlim o'zgarishini kamaytirish kabi maqsadlarga xizmat qiladigan texnologiyalardir. Bu texnologiyalar asosan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni boshqarish va ekologik izni kamaytirish bo'yicha ishlanadi. Yashil texnologiyalar orqali biz ekologik izni kamaytirish va atrof-muhitni himoya qilish orqali barqaror texnologiyalarga erishishimiz mumkin.

Yashil iqtisodiyot - bu global status universal va transformativ o'zgarish. Bu hukumat ustuvorliklarini tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Ushbu o'zgarishni amalga oshirish oson emas, lekin agar biz barqaror rivojlanish maqsadlariga erishmoqchi bo'lsak, bu zarur.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari: Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, geotermal energiya va gidroenergiya kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalari energiya

ishlab chiqarishning an'anaviy usullaridan farq qiladi. Bu manbalar cheksiz va tabiiy ravishda yangilanadi, shuning uchun ular ekologik izni kamaytiradi va energiya xavfsizligini oshiradi.

Energiyani samarali ishlatish: Yashil texnologiyalar energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan. Energiyani tejovchi qurilmalar, energiya samaradorligini oshiruvchi binolar va sanoat tizimlari nafaqat energiya iste'molini kamaytiradi, balki chiqindilarni ham kamaytiradi.

Chiqindilarni qayta ishlash: Chiqindilarni qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish texnologiyalari yashil texnologiyalar qatoriga kiradi. Plastik chiqindilarning kamayishi, organik chiqindilarni kompostlash, va boshqa chiqindilarni qayta ishlash usullari atrof-muhitga ta'sirni kamaytiradi.

Ushbu yashil investitsiyalar maqsadli davlat xarajatlari, siyosat islohotlari va soliqqa tortish va tartibga solish sohasidagi o'zgarishlar orqali faollashtirilishi va qo'llab-quvvatlanishi kerak. Birlashgan Millatlar Tashkiloti atrof-muhit, tabiiy kapitalni muhim iqtisodiy aktiv va ijtimoiy manfaatlar manbai sifatida tushunadigan rivojlanish yo'lini targ'ib qiladi, ayniqsa, tirikchiligi tabiiy resurslarga bog'liq bo'lgan kambag'al odamlar uchun. Yashil iqtisodiyot tushunchasi barqaror rivojlanishning o'rnni bosmaydi, balki butun Osiyo va Tinch okeani mintaqasida iqtisodiyot, investitsiyalar, kapital va infratuzilma, bandlik va malakalarga hamda ijobiy ijtimoiy va ekologik natijalarga yangi e'tiborni yaratadi.

Barqaror rivojlanish uchun yashil iqtisodiyot, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish va resurslar samaradorligining o'rni: barqaror iste'mol va ishlab chiqarish jarayonlar va mahsulotlarning butun hayotiy sikli davomida resurslarni iste'mol qilish, chiqindilarni hosil qilish va emissiyalarni kamaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlari va iste'mol amaliyotlarini takomillashtirishga qaratilgan. Resurs samaradorligi esa jamiyatga qiymat yetkazib berish uchun resurslardan foydalanish usullarini nazarda tutadi va mahsulot yoki xizmat birligi uchun zarur bo'lgan resurslar miqdorini, ishlab chiqariladigan chiqindilar va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot investitsiyalar, bandlik va malakalarga asosiy e'tibor qaratgan holda barqaror iqtisodiy o'sish uchun makroiqtisodiy yondashuvni ta'minlaydi.

Agar yangi iqtisodiy siyosat olib borilmasa, OECDning 2050-yilgi prognozlariga ko`ra dunyo energiya talabi 80% ga ortadi. Mamlakatlar miqyosida tahlil qilinadigan bo`lsa, Janubiy Afrika 15%, OECD yevropa mamlakatlarida talab 28%, Yaponiya 2,5%, Meksikaning energiya talabi 112% ortishi kutilmoqda. Issiqxona gazlari emissiyasi 50%ga ortadi va havo ifloslanishini yomonlashtiradi. Shaharlarning ifloslanishi 2050-yilga kelib eng katta muammoga aylanadi. Bunda ichimlik suvlarining ifloslanishi va sanitariyaning yomonlashuvi yetakchilik qiladi. Nihoyatda og`ir havo ifloslanishi sababli yuzaga keladigan bevaqt o`limlar soni yiliga 3.6 millionga yetadi va bu bo`yicha Xitoy va Hindistonning ulushi sezilarli darajada ko`p bo`ladi. Yer yuzi 10%gacha qisqarib ketadi, ayniqsa, bu Osiyo, Yevropa va Janubiy Afrika davlatlarida ko`proq kuzatilishi kutilmoqda. Tabiiy o'rmonlar maydoni 13%gacha qisqarishi prognoz qilingan. Ushbu global xavflarni oldini olishda eng asosiy e'tibor iqtisodiyotni ekologizatsiyalashtirishga qaratilishi lozim. Bunda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish, ekoinnovatsiyalar hamda ekologik investitsiyalarni

joriy etish kabi bir qancha chora-tadbirlar mavjud. Innovatsiyalar ekologik samaradorlik va iqtisodiy o'sish uchun asosiy omil hisoblanadi. Eko-innovatsiya - bu atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga olib keladigan har qanday innovatsiya; bu yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy zahiralarni tejaydigan va minimal zaharli moddalarni chiqaradigan tizimlar va jarayonlarni yaratishdir.

Ekoinnovatsiyalar - bu faqatgina tabiiy resurslarni va umuman atrof-muhitni saqlab qolish vositasi emas, balki resurslardan oqilona, zamonaviy, ishonchli foydalanish bilan bir vaqtda mamlakatning iqtisodiy farovonligini va umuman raqobatbardoshlik darajasini oshirishga yordam beruvchi juda samarali vosita. Davlat iqtisodiyotida yashil sektor ulushini ko`paytirish uchun tezlashtirilgan amortizatsiya, mulk solig'i yoki daromad solig`ini kamaytirish kabi soliq imtiyozlarini qo'llashi mumkin, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalarни ekologizatsiyalashni amalga oshirish uchun davlat moliya muassasalari tomonidan imtiyozli kreditlar va yashil texnologiyalarga investitsiyalar kiritishi mumkin. Ammo davlat ekologik muvofiqlikni ta'minlash uchun biznes subsidiyalarini taqdim etishi to'g'ri hisoblanmaydi. Uning o'rniga, davlat organlari korxonalarning moliyaviy holatini rag`batlantirishda ekologik omillarga e'tibor qaratilish mezonini o'zida aks ettiruvchi xususiy banklar va sug`urta kompaniyalarini kengaytirishi kerak. Ya ni, banklar kreditni tasdiqlashdan oldin ekologik ko`rsatkichlar ro`yxatini talab qilishi mumkin, sug`urta kompaniyalari esa ekologik xavflar va ularni kamaytirish choralar bo'yicha identifikatsiya deklaratsiyasini tuzishlari mumkin.

Yashil iqtisodiyot past uglerodli, resurslardan tejamkor va ijtimoiy inklyuziv sifatida tavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotda bandlik va daromadning o'sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishini kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, biologik xilmashxilik va ekotizim xizmatlarining yo'qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyat, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalar orqali ta'minlanadi. Yashil iqtisodiyot jadal suratlar bilan rivojlanib bormoqda ekan uning asosiy tamoyillari nimadan iborat ekanligini bilib olishimiz zarurdir. Yashil iqtisodiyotning beshta ta'moyili mavjuddir.

### **Adabiyotlar:**

1. Порфирий Б.П., "Зеленая" экономика: реалии, перспективы и пределы роста. - М. Карнеги, 2013.
2. . www.unep.org - Birlashgan Millatlar Atrof-muhit dasturining rasmiy sayti
3. "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Jahon banki, Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi, 2022-yil. O'zbekistonda "Yashil" O'sish va Iqlim O'zgarishi bo'yicha Siyosiy Muloqotlar Turkumi: Ishlar To'plami. Jahon banki: Washington D.C.

## **MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA AMALIY VA ILMIY METODOLOGIK TAMOYILLAR**

**Dostonova Nodiraxon Muxtorjon qizi**  
*Farg‘ona Davlat texnika universiteti 2-son akademik litseyi o‘qituvchisi*

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15587857>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematikani o‘rganishning ilmiy-amaliy tamoyillari, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va metodik asoslari yoritilgan. Matematikani o‘rganishda ilmiy yondashuvlar, amaliy mashqlar va o‘qitishning innovatsion metodlari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, matematikani o‘rganishda o‘quvchilarga mustaqil fikrlash va analitik yondashuvlarni rivojlantirishning muhimligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** matematika, ilmiy tamoyillar, o‘rganish, metodika, amaliy yondashuv, analitik fikrlash, sintez, metodologiya, o‘qitish usullari, ta’lim tizimi.

**Annotation:** This article discusses the scientific and practical principles of learning mathematics and their importance in the teaching process. It provides insights into scientific approaches, practical exercises, and innovative teaching methods for effectively learning mathematics. Furthermore, the article emphasizes the importance of developing independent thinking and analytical approaches in students while studying mathematics.

**Keywords:** mathematics, scientific principles, learning, methodology, practical approach, analytical thinking, synthesis, methodology, teaching methods, education system.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются научно-практические принципы изучения математики и их значимость в учебном процессе. Описание научных подходов, практических упражнений и инновационных методов преподавания математики для эффективного освоения предмета. Также подчеркивается важность развития у студентов независимого мышления и аналитического подхода при изучении математики.

**Ключевые слова:** математика, научные принципы, обучение, методология, практический подход, аналитическое мышление, синтез, методика, методы преподавания, образовательная система.

Matematika fani ta’lim tizimining asosiy fanlaridan biri bo‘lib, uning o‘rganilishi nafaqat o‘quvchilarning mantiqiy va analitik fikrlashini rivojlantiradi, balki hayotda yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilishda zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Matematikani o‘rganishning ilmiy-amaliy tamoyillari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning muvaffaqiyatli bilim olishlarini ta’minlash uchun muhim asosdir. Ushbu maqolada matematika fanini o‘rganishning ilmiy-amaliy tamoyillari va ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llashning metodik yondashuvlari keltirilgan.

### **1. Ilmiy-amaliy tamoyillarning mohiyati**

Matematika fani o‘qitishda ilmiy-amaliy tamoyillar, ayniqsa o‘quvchilarga mantiqiy, analitik fikrlashni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ilmiy tamoyillar fanning metodik asoslarini tashkil etadi va ularning yordamida o‘quvchilarni matematikaviy masalalarни tahlil qilish va hal etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin. Bu tamoyillar o‘qituvchilarga matematikani o‘rgatishda to‘g‘ri yondashuvlarni tanlash va qo‘llashda yordam beradi.

## **2. Matematikani o‘rganishda metodik yondashuvlar**

Matematika fanini o‘qitishda metodik yondashuvlar juda muhim o‘rin tutadi. Matematikani o‘rganishning ilmiy-amaliy tamoyillari amaliy mashqlar, misollar yechish, o‘quvchilarga turli matematik modellarni yaratish orqali samarali amalga oshiriladi. Metodik yondashuvlar o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni mustahkamlash, ularni praktika bilan bog‘lash va nazariy tushunchalarni amaliyatga qo‘llash imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birga, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning izlanish va sintez qobiliyatlarini rivojlantirish zarur.

## **3. Amaliy mashqlar va metodlarni qo‘llash**

Matematika fani o‘qitishda amaliy mashqlarni bajarish va o‘quvchilarga turli misollarni yechish juda muhimdir. Amaliy mashqlar yordamida o‘quvchilar bilimlarni mustahkamlash bilan birga, turli matematik muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar. O‘quvchilar amaliy mashqlarni bajarish orqali matematik tushunchalarni o‘zlashtiradilar va real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq etishga o‘rgatadilar.

## **4. Ilmiy va amaliy sintez**

Matematika o‘qitish jarayonida ilmiy va amaliy sintez o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirish imkonini beradi. Ilmiy sintez orqali o‘quvchilar matematik masalalarini tahlil qilish, ularni turli metodlar yordamida yechish va natijalarga erishish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Amaliy sintez esa o‘quvchilarga matematik bilimlarni amaliyotda qo‘llash, yirik va kichik misollarni yechish orqali mustahkamlash imkonini beradi. Matematika fanini o‘rganishning ilmiy-amaliy tamoyillari o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy tamoyillar o‘quvchilarga matematikaviy masalalarini yechishda to‘g‘ri yondashuvlarni tanlashga yordam beradi, metodik yondashuvlar esa o‘quvchilarni amaliy mashqlar va misollar yordamida o‘rgatishga imkon yaratadi. Matematikani o‘rganish jarayonida sintez va amaliy mashqlarni qo‘llash orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradilar. Shu tarzda, ilmiy-amaliy tamoyillar matematika fani o‘qitishning samarali asosini tashkil etadi.

So‘nggi yillarda matematika ta’limida sun’iy intellekt (AI) va adaptiv o‘quv platformalari (masalan, Khan Academy, Mathway, GeoGebra) keng joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar yordamida har bir o‘quvchiga individual yondashuvni ta’minalash, ularning bilim darajasiga qarab moslashuvchan mashqlar va tushuntirishlar berish imkoniyati tug‘iladi. AI asosidagi o‘quv tizimlari o‘quvchilarning xatolarini avtomatik tahlil qiladi, zaif nuqtalarini aniqlaydi va takroriy mashg‘ulotlar taklif etadi. Bundan tashqari, **matematika ta’limida ma’lumotlar tahlili (data analysis)** va **vizualizatsiya texnologiyalari** (Power BI, Tableau, Python kutubxonalari – Matplotlib, Seaborn) yordamida real hayotdagi masalalarini modellashtirish imkoniyati yaratilmoqda.

Sun’iy intellektga asoslangan platformalar o‘quvchilarning o‘rganish tezligi, xatolar soni, tahliliy fikrlash darajasi kabi ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatib boradi. Bu esa o‘qituvchiga har bir o‘quvchining individual rivojlanish yo‘nalishini aniqlash va mos strategiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, **raqamli sinflar** va **virtual laboratoriylar** orqali o‘quvchilar murakkab matematik jarayonlarni vizual ko‘rinishda o‘rganib, mavzularni tezroq va samaraliroq tushunishga erishmoqdalar. Bu yondashuvlar o‘quvchining faolligi va mustaqil ishlash qobiliyatini oshirib, ularni tadqiqotga yo‘naltiradi.

Zamonaviy ta’limda **gamifikasiya** – ya’ni o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga qo‘sish orqali motivatsiyani oshirish usuli keng qo‘llanmoqda. Masalan, o‘quvchilarni raqamli platformalarda ball to‘plash, bosqichma-bosqich darajalarni o‘tish, masalalarni yechish orqali mukofotlash ularning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bilan birga, **masofaviy o‘qitish** texnologiyalari yordamida matematikani o‘zlashtirish imkoniyatlari kengayib, geografik yoki vaqt chegaralari chetga surilmoqda. Interaktiv testlar, videodarslar, avtomatik tahlil vositalari orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi real vaqtida baholanmoqda. Bu o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki hayotiy muammolarni tahlil qilish va matematik asosda yechim topish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ismanova O.T. “Sonli modellashtirish usulida masalalar ishslash orqali talabalarni fizik jarayonni to‘liq tahlil qilishlarini shakllantirish”, NamDU Ilmiy axborotnomasi, 2022 yil, 4-son, 815-820 betlar.
2. Azlarov T., Monsurov X. “Matematik analiz”, T.: O‘qituvchi, 1986.
3. Muslimov N.A. “Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish”, Monografiya, T.: fan, 2004.
4. Muslimov N.A. va boshqalar, “Kasbiy kompetentlikni shakllantirish texnologiyasi”, Monografiya, T.: “Fan” va texnologiya nashriyoti, 2013.

**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**

1.	Rustamov Olimjon Murodovich BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGETIKANING ROLI	5
2.	Маматкулова Д. Х. УЗБЕКИСТАН НА ПОРОГЕ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ПОСРЕДСТВОМ ЗЕЛЁНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.	10
3.	Kamoliddin Turayev Samadovich STRATEGIES AND PROSPECTS FOR IMPROVING THE ETHICAL GRADATION OF THE MEDIA	14
4.	Анорбоев Амириддин Улуғбек ўғли ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАҲДИД СОЛУВЧИ КИБЕРЖИНОЯТЛАРНИНГ ТАСНИФИ	20
5.	Eshmurzayev Yusuf Meylikulovich, Ergasheva Zilola Saydulloyevna BOLALAR FOLKLORI VA UNING TALQINI, BADIY XUSUSIYATLARI	25
6.	MATSABIROVA DURDONA MAKSDUDJON QIZI TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI	32
7.	Eshmurzayev Yusuf Meylikulovich FOLKLORDA MAXSUS JANRLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI AMALIY O'RNI	36
8.	Эргашева Зилола Сайдуллаевна ФЕНОМЕН МЕРОНИМИЯ И ЕЕ РОЛЬ В ЯЗЫКОЗНАНИИ	41
9.	Narzullaev Iskandar Safarovich KIYIM-KECHAK TA'MINOTI XIZMATINING RIVOJLANISH TARIXI	46
10.	Xotamova Mehrangiz Ma'rufjonovna IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARGA HIKOYA JANRINI O'QITISHNING PASSIV VA FAOL MEDODIK USULLARI	51
11.	Ulugbek Mirmukhamedov YASHIL TEXNOLOGIYALARING ASOSIY TAMOYILLARI	58
12.	Dostonova Nodiraxon Muxtorjon qizi MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA AMALIY VA ILMIY METODOLOGIK TAMOYILLAR	61

*Note!!! The numbers in the articles included in the journal "Innovation Science and Research" indicate that the information is correct and that the authors are personally responsible for the content of the article.*

**International Scientific Journal  
Innovation Science and Research  
Volume 3 Issue 1**

LLC “Innovation Science and Research”

License №:083239 23.05.2023

Address: Uzbekistan, Tashkent city, Almazar District, Beshkurgan-3 1/84

Sciencejournal.uz, [https://t.me/sciencejournals\\_uz](https://t.me/sciencejournals_uz)